T.M.Nikolayeva 1990-yilda chop etilgan "Lingvistik ensiklopedik lug'at"da "Tekst (lot. Textus – mato, qo'shilish, birikish) – Belgi birliklarining ketma-ketlik asosida mazmunan bog'lanishi bo'lib, bog'liqlik va yaxlitlik uning asosiy xususiyati" [5] ekanligi ta'kidlanadi va bu lug'atda til belgilarining mazmunan ketma-ketlik asosida bog'lanishi, bog'liqlik, yaxlitlik matnning asosiy belgisi sifatida ko'rsatiladi. Bu ta'rifda matnning asosiy belgilari sifatida "belgi birliklarining ketma-ketlik asosida mazmunan bog'lanishi", "bog'liqlik va yaxlitlik" ko'rsatiladi. Biroq belgi birliklari tushunchasi keng qamrovli bo'lgani uchun ta'rifni mavhumshtirib qo'yadi. Bog'liqlik va yaxlitlik tushunchasi esa qo'shma gap, murakkab qo'shma gaplarga ham xos belgi sifatida faqat matngagina tegishli emasligi ayon bo'ladi. Chunki qo'shma gap va murakkab qo'shma gap ham bo'linmagan, bir butun, ya'ni yaxlit bo'ladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa "Tekst (lot. Textum – bog'lanish; birikish; aloqa; birikma) q.matn" [6] deb ko'rsatiladi va "Matn (a. Yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst) 1 yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2 bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi", [6] deb izohlanadi. Bu lug'atda ham matnning yozma shaklga egaligi, harflar vositasida ifodalanganligiga asosiy e'tibor qaratiladi. Avvalgi ta'riflardan farqli ravishda, bu ta'rifda matnning "mualliflik asari" "hujjat" "bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi" kabi belgilariga asosiy e'tibor qaratiladi. Bu esa matn borasidagi tushunchani bir oz oydinlashtiradi, ya'ni gapdan katta birlik ekanligi ma'lum bo'ladi. Biroq bu izohlarda ham matnning struktur-semantik belgilari ochilmay qoladi.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da esa "Matn, tekst – 1) yozilgan yoki bosilgan asar, nutq (shuningdek, ularning biror parchasi); 2) kitob, gazeta, jurnal va sh.k.da rasm, jadval b. bezaklardan tashqari qismi; rasmiy hujjat va sh.k.ning ulardagagi turli ko'rsatkich (sharh, izoh)lardan ajralib turgan qismi; 3) musiqa asarlari (opera, romans va b.)ga yozilgan so'zlar" [7] deb izoh berilgan. Bu izohda ham matn "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi izoh kabi talqin qilinadi va, shuningdek, "musiqa asarlari (opera, romans va b.)ga yozilgan so'zlar" kabi turlari qo'shimcha qilinadi.

Adabiyotshunoslikda oid lug'atlarda matn tushunchasini izohlashda uni muallif bilan bog'liq tomonlariga e'tibor qaratiladi. Jumladan, 1979-yilda chop etilgan "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da "Tekst (lat. textum – to'qima, aloqa so'zidan) – avtorning asl so'zi, asarning qo'lyozmasi yoki nashr etilgan nusxasi" [8] sifatida yondashiladi va matnning qo'lyozmalik va nashr etilganligiga urg'u beriladi. "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" da "Tekst (lat. textus – to'qima, aloqa so'zidan) – tekst. Qo'l yozma yoki nashr etilgan asarlardagi avtorning asl so'zi" [9] deb avvalgi lug'atdagi kabi ta'rif beriladi.

D.Quronov umumiy tahriri ostida chop etilgan “Adabiyotshunoslik lug’ati”da “Tekst (lot. textus – mato, to’qima, matn) – 1) Yozuvda qayd etib qo’yilgan nutq, termin bu ma’nosida og’zaki nutqqa qarshi qo’yiladi; 2) nutqiy asar, jumladan, adabiy asarning yozma (harflar) yoki og’zaki(tovushlar) belgilar vositasida qayd etilgan konkret-hissiy (ko’rish yo eshitish) qabul qilinadigan tomonidir. Bu ma’nodagi T. Matnshunoslikning obyekti hisoblanadi. 3) nutqiy kommunikatsiyaning nisbiy butunlik, yaxlitlik kasb etgan va nisbiy avtonomlik, alohidalik xususiyatiga ega eng kichik birligi, ya’ni adabiy badiiy asar. Bu ma’noda T. ning mazmuni uni tashkil qilayotgan nutq birliklari, ularning o’zaro aloqalari bilan cheklanib qolmaydi” [10] deb ta’riflanar ekan matnning yozma, og’zaki, ko’rinishlari, matnshunoslikning obyekti ekanligi qo’shimcha qilinadi va “nutqiy kommunikatsiyaning nisbiy butunlik, yaxlitlik kasb etgan va nisbiy avtonomlik, alohidalik xususiyatiga ega eng kichik birligi, ya’ni adabiy badiiy asar” ekanligi e’tirof etiladi.

Garchi turli manbalarda matnga turlicha ta’rif berilsa ham, barcha ta’riflarda uning yaxlit va mazmun jihatdan bog’langanligi, nutq mahsuli, nutq birligi sifatidagi belgilari ajratib ko’rsatiladi. Bizningcha, matnga berilgan ta’riflar ichida professor A.Mamajonovning “Sintaktik hodisa sifatida tekst maxsus leksik-grammatik vositalar va umumiy mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig’indisidan iborat. Tekst o’ziga xos murakkab strukturaga ega bo’lgan nutqning eng yirik ifodasidir” [4] deb berilgan izohi matnning o’ziga xos xususiyatlarini to’la ifoda etadi. Chunki bu ta’rifda matnning semantik, grammatik, struktur jihatlari qamrab olingan bo’lib, matnning murakkab sintaktik hodisa sifatidagi belgilarini o’zida to’la aks ettirgan.

Yuqorida matnga terminini xilma-xil izohlanganini ko’rib o’tdik. Shunday ekan matnni o’rganish qachondan boshlandi degan savol tug’ilishi tabiiy. Chunki bugungi kunda matnni ilmiy nazariy jihatdan o’rganish tilshunoslikda alohida, mustaqil yo’nalish sifatida shakllandi. Buning sababi faqat matndagina tilning turli sath birliklarini yaxlit holda tadqiq qilish imkoniyati mavjud. Unda til sistemasi to’la namoyon bo’ladi. Matnda tilning turli sath birliklarining vazifalari, ularning o’zaro munosabati, semantik imkoniyati aniq ko’rinadi. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda matn va uning semantik, sintaktik, kommunikativ strukturasi bilan bog’liq ko’plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu muammo ko’plab olimlarning e’tiborini tortgani uchun endilikda uning semantik, sintaktik, kommunikativ jihatlarigina emas, balki matnning psixolingvistik, sotsiolingvistik, kognitiv muammolari ham tadqiqot maydoniga kirib keldi. Shunga qaramay matn nazariyasining yuzaga kelishi va rivojlanishi borasida xilma-xil qarashlar ilgari surilmoqda, jumladan, mavjud adabiyotlarda matn nazariyasi bilan bog’liq tadqiqotlarni 20-asrni 40-yillari oxirida, ayrim adabiyotlarda esa o’tgan asrni ikkinchi yarimida yuzaga kelganligi ta’kidlanadi. Biroq o’rganishlar shuni ko’rsatmoqdagi, Matn borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar dastlab o’tgan asrning 30-yillarda yuzaga kelgan.

**Muhokama.** Mavjud adabiyotlarni o’rganish natijasida matn borasidagi olib borilgan tadqiqotlarning yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlarini to’rtga bo’lish mumkin:

1. Matnga amaliy jihatdan yondashuv.
2. Matnni lingvistik tadqiqot obyekti sifatida belgilanishi.
3. Matnning struktur-semantik jihatlarini belgilash.
4. Matnni ilmiy-nazariy planda tadqiq qilish.
5. Matn nazariyasi bo’yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish.

Birinchi bosqichda matnga amaliy jihatdan yondashilgan bo'lib, qadimgi hind tilshunoslari eramizdan 15 asr ilgari Vedalarni o'rganar ekan "tekstlarni diqqat bilan fonetik va morfologik jihatdan analiz qilganlar" [11]. Matning tarkibiy qismini tahlil qilish orqali uning o'zgarib ketgan qismlarini qayta tiklaganlar. Garchi bu tadqiqotlar matnshunoslik harakterida bo'lsa ham, matnga yaxlit birlik sifatida yondashish nuqtayi nazardan ahamiyatga ega bo'lgan. Matnga tekstologik nuqtayi nazaridan yondashish til sathining matndan kichik birliklarini tahlil qilish uchun yo'l ochgan.

Qadimgi Yunoniston tilshunoslik "eng qadimgi klassik adabiyotni o'rganish bilan bog'liq ravishda filologik (tekstologik) ishlarning uzviy qismi sifatida ham rivoj topgan. Qadimgi Yunoniston ham qadimgi Hindistondagi kabi tekstlarni analiz qilib, ularga izoh berish ehtiyoji" [11] tufayli tilshunoslik yuzaga keldi. Bu davrlarda matnni o'rganishga ilmiy-nazariy jihatdan yondashilmagan bo'lsa ham, uning tarkibiy qismlari, ya'ni yaxlit nutq maxsulining qismlari ajratilgan. Demak, qadimda ham matn o'rganilgan. Biroq bu davrda matnga asosan amaliy jihatdan yondashilgan bo'lib, bunday yondashuv ko'proq matnshunoslik nuqtayi nazaridan bo'lgan.

Matnni o'rganishning ikkinchi bosqichini o'tgan asrning birinchi yarmidan boshlangan desak, to'g'ri bo'ladi. Bu davrda matnga lingvistik tadqiqot obyekti sifatida yondashildi. Dastlab, 20-asrning 30-yillarida rus tilshunoslida I.A.Figurovskiy murakkab sintaktik butunlikni matnning komponenti sifatida ko'rsatib, uni o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan grammatik jihatdan shakllangan, uyushgan gaplarning yopiq guruhi, yaxlit nutq sifatida ko'rsatdi [12]. Shuning uchun mavjud adabiyotlarda matnni birinchilardan bo'lib tadqiq qilgan olimlar sifatida I.A.Figurovskiy va N.Pospelovlar tilga olinadi hamda ularning matnni birinchi bo'lib lingivistik maqomini belgilab bergenligi e'tirof etiladi [13].

**Natija.** Dastlab, matnga murakkab sintaktik butunlik sifatida yondashilgan. Chunki o'z davrida gap sintaksisning eng yuqori birligi sifatida tan olingan, gapning sodda, qo'shma, murakkab turlari ajratilgan edi. Biroq kuzatishlar natijasida gap sintaksisning eng katta birligi bo'la olmasligi ma'lum bo'ldi. Ilmiy-nazariy kuzatishlar tufayli til birliklarining funksiallashuvi gap doirasida o'zining to'la yechimini topmasligi aniqlandi. Ayrim til birliklarining semantik strukturasi bir necha mustaqil gaplar qurshovida aniq bo'lishi sezilib qoldi. Gap til birliklari tadqiqi uchun kichik kontekst sifatida tanlandi. Gap doirasida fonetik, morfemik birliklar tadqiqi samarali bo'lsa, so'z, ibora, so'z birikmasi, jumlalar tadqiqi uchun gap kontekst sifatida torlik qilib qoldi. Gapning intonatsion belgilarini aniqlash, uning mazmuniy strukturasini belgilash uchun ham gapdan yuqori birliklarga murojaat qilish ehtiyoji yuzaga keldi. Dastlab, ana shunday gapdan yuqori birlik sifatida murakkab sintaktib butunlikka murojaat qilindi va "murakkab sintaktik butunlik murakkab qo'shma gaplardan farqlanuvchi o'ziga xos struktur-semantik va funksional belgilarga ega bo'lgan mustaqil sintaktik birlik" [14] sifatida ajratildi. Biroq murakkab sintaktik butunlik termini matn termini mohiyatini to'la bermas edi. Chunki "murakkab sintaktik butunlik" terminologik birikma ostida, asosan, mikromatnlar nazarda tutilar, ya'ni bir mazmuniy munosabat ostida birlashgan gaplar nazarda tutilar edi. Unga berilgan ta'rifga ko'ra "Murakkab sintaktik butunlik yoki supperfrazali sintaktik birlik – matndagi bir nechta gaplarning birikmasi bo'lib, mavzuning (mikromavzuning) nisbiy to'liqligi, komponentlarning semantik va sintaktik uyg'unligi bilan tavsiflanadi. Murakkab sintaktik butunlik semantik va mantiqiy yaxlitlikni ifodalash vositasi hisoblanadi" [15]

Boshqa bir ta'rifda "Superfrazali sintaktik birliklar (qisqacha SFB) grammatic jihatdan mustaqil shakllangan gaplardan tashkil topadi. Ma'lumki, har bir gap nisbatan mustaqil fikr anglatadi. Ko'rinadiki, SFB bir necha mustaqil fikrlarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Bu yig'indidan umumiy bir tugal hukm chiqariladi, konkret xulosaga kelinadi" [4] deb izohlanadi.

Bu borada tadqiqot olib borgan L.M.Loseva "Har bir SFB – bu, o'z boshlanishi, rivoji va tugallanmasiga ega bo'lgan bir voqeani ifodalovchi minnatyura holidagi hikoyadir" [16] deb ta'kidlaydi.

Ko'rinib turibdiki, superfrazali sintaktik butunlik – superfrazali sintaktik birlik, o'z boshlanmasi, rivoji va tugallanmasiga ega bo'lgan, bir mazmuniy yaxlitlikdan tashkil topgan sintaktik konstruksiya hisoblanadi. Bu konstruksiyani tashkil qilgan gaplar bir mavzu, mazmun birligini tashkil etadi. U o'zining ana shu belgilari bilan kichik hajmlı matnga mos keladi. Agar bunday konstruksiya o'zidan katta matnning tarkibida kelsa, mikromatnga teng keladi. Shuning uchun "murakkab sintaktik butunlik", "superfrazali sintaktik birlik" terminlari ham matn mohiyatini to'la ochib bermaydi. Shunga qaramay, bu borada olib borilgan tadqiqotlar matn nazariyasining yuzaga kelishida dastlabki qadam sifatida kata ahamiyatga ega bo'ldi.

Matn lingvistikasini rivojlanishning uchinchi bosqichi o'tgan asrning 50-yillarning ikkinchi yarmi 60-yillardan boshlandi. Bu davrga kelib matn lingvistik tadqiqot obyekti sifatida tan olindi. Navbatdagi muammo sifatida matnning struktur-semantik jihatlarini belgilash tadqiqotchilar e'tiborini tortdi. Bunda matnning ichki tuzilishi, semantik strukturasi, matnda gaplarning o'zaro bog'lanishi va uning matn shakllanishidagi o'rni, matnning intonatsion strukturasi, matn birliklari kabilar tadqiq etildi. Matnning struktur-semantik jihatlari belgilanar ekan, asosiy etibor gap sintaksisi bilan bog'liq holda olib borildi. Bunda gaplarning o'zaro bog'lanishi, ularning matn tuzilishidagi o'rni muammosi, jumlalar va abzaslarning matn strukturasi tutgan o'rni kabilar tadqiq etildi va shular asosida matn birliklari aniqlandi. Shuningdek matnning shakllanishining mantiqiy-ruhiy asoslari ham tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmadi.

O'tgan asrning 60-yillarning ikkinchi yarmi 70-yillaridan boshlab matnni tadqiq etish tez sur'atlarda rivojlandi. Bu davrga kelib matn tom ma'noda ilmiy-nazariy planda tadqiq etila boshlandi. Matnni tadqiqiga bag'ishlangan davriy nashrlar chop etila boshlandi. Shuningdek, matn lingvistikasiga bag'ishlangan bir qator to'plamlar chop etildi. Chunki unga qadar bo'lgan tadqiqotlar asosan matn bilan bog'liq bo'lsa ham, hali matnning lingvistik maqomi to'la belgilanmagan edi. Chunki olib borilgan tadqiqotlarda matn o'zi nima degan savol to'la-to'kis o'z javobini olmagan edi. Bu davrga kelib matn nazariyasi to'la shakllandi.

Shuning uchun matn nazariyasining predmetini belgilab olish zaruriyati yuzaga keldi. Bu borada tadqiqot olib borgan olimlardan biri Xorst Izenberg bo'lib, u o'zining "Matn nazariyasi va grammatic obyektlari" kitobida matnning tadqiq etishning umumiy jihatlari, matn tuzish va uni to'g'ri shakllantirish me'zonlari, matn yaratishda nimalarga e'tibor qaratish zarurligi borasida chuqur ilmiy-nazariy tadqiqot olib bordi. Bu davrga kelib dastlab matn nazariyasiga e'tibor qaratilganining sababi, matnni tadqiq etish uchun uning nazariy maqomini belgilash zaruriyati dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqqan edi. Shuning uchun tadqiqotlarda matn tushunchasining nazariy talqini va maqomi belgilab olindi.

Matnni nazariy jihatdan tadqiq etish uning strukturasi belgilash muammosini yuzaga chiqardi. Shuning uchun 60-70-yillardagi dastlabki tadqiqotlar matnning nazariy maqomini belgilash muammolariga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik uning strukturasi bag'ishlangan

tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, Wolfgang Dressler o'zining "Matn sintaksisi"ga bag'ishlangan ishida matnning sintaktik qurilishi borasida tadqiqot olib borgan bo'lib, matnni superfrazali sintaktik butunlik sifatida yondashadi va matnning sintaktik hodisa sifatida baholar ekan, undagi hamma narsa o'zaro zich bog'langan yaxlitlikdan iborat deb qaradi.

O'tgan asrning 80-yillariga qadar matn o'zi nima, uni boshqa sintaktik birliklardan farqi nimada, matn turlari, matn va uni bog'lovchi vositalar borasidagi muammolar tadqiqot markazida turgan bo'lsa, o'tgan asrning 80-yillariga kelib, matn ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilina boshladi. Jumladan, L.M.Loseva o'zining "Kak stroitsya tekst" qo'llanmasida: "Matnni tashkil etuvchi lingvistik vositalarni o'rganish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega" [16.3], – deb ta'kidlaydi hamda bu qo'llanmada matnning semantik, sintaktik jihatdan tahlil qilish murakkab sitaktik butunliklarning nutqdagi vazifasi ko'rsatib berish, uning vazifaviy tiplarni aniqlash imkonini beradi qaraydi. U o'zining bu kitobida murakkab sintaktik butunliklarning matn birligi sifatida tahlilga tortadi va ularni bog'lovchi vositalarni aniqlaydi. U matnning quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatadi:

- 1) matn – yozma shakldagi biror habar (biror narsa haqida habar beriladi);
- 2) matn mazmun va tuzilish jihatdan tugallanganligi bilan xarakterlanadi;
- 3) matn muallifning berilayotgan xabarga munosabatini ifodalaydi".

O'zbek tilshunosligida ilk bor filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston hamda Turkiya fanlar akademiyasining akademigi G'.Abdurahmonov xalqaro turkologlar konferensiyasida matn nazariyasi borasidagi ilmiy ma'rzasasi bilan matn lingvistikasi tadqiqiga asos soldi. U o'zining ma'rzasida turkologiyada matn nazariyasi muammolari va uning sintaktik sathdagi o'rni borasida amalga oshirilish zarur bo'lgan masalalarni belgilab berdi. Z.Y.Turayev matn va uning eng muhim belgilarini ajratib ko'rsatdi. U matnning eng muhim belgisi sifatida uning mazmuniy yaxlitligini nazarda tutdi. Shundan keyin, M.To'xsonov mikromatnda kogerentlik muammosini badiiy matn misolida monografik planda tadqiq etdi. Filologiya fanlari doktori, professor A.Mamajonov pedagogika institutlarining o'zbek filologiyasi fakulteti studentlari uchun tayyorlagan maxsus kurs materiallarida matn va uning birliklari, matnning funksional tiplari, matn qismlarining birikish usullari va bog'lanish vositalarini o'zbek tili matnlari asosida aniqladi. Matn birliklari bo'lgan superfrazali sintaktik butunlikalar, ular orasidagi mazmuniy munosabat, superfrazali sintaktik butunlik va abzas, ularning integral va differensial belgilarini ochib berdi. Tekst tuzishdagi sintaktik-stilistik figuralarning rolini aniqladi, shuningdek, periodik nutq shakllari va ularning matn nazariyasiga aloqador jihatlarini misollar asosida tahlil qildi. Professor A.Mamajonovning nazariy xulosalari keyinchalik o'zbek tilshunosligida olib borilgan bir qator tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Matn yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida matn tushunchasi va uning lisoniy belgilari o'rganilgach, matnning uslubiy, pragmatik, psixolingvistik, lingvokulturologik jihatlariga e'tibor qaratildi. Shuningdek, avval umuman matn o'zi tadqiqot obekti bo'lgan bo'lsa, keyinchalik matnning funksional uslubiy ko'rinishlari tadqiqot obektiga aylandi. Jumladan, M.Hakimov o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib, ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etdi. U o'zining bu tadqiqotida ilmiy matnning sintagmatik belgilari, uning pragmatik aspekti, ilmiy matn birliklari orasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi vositalar orqali matnning mazmuniy strukturasi kabilarning o'ziga xos jihatlarini ochib berdi. M.Hakimov dastlab ilmiy matn borasida tadqiqot olib borgan bo'lsa, keyinchalik u "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" nomli doktorlik dissertatsiyasida

o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib, matnning pragmatik jihatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rgandi.

M.Hakimova vaqt ma'noli lug'aviy birliklarning matn shakllantirish imkoniyatlarini tadqiq etar ekan, vaqt ifodalovchi leksemalarning matnning mazmun va struktur yaxlitligini taminlashga xizmat qilishini, bunday birliklarning makromatn xosil qilish funksiyasini oolib berdi.

Matn va uning o'ziga xos xususiyatlari, matnning leksik-grammatik, struktur-semantik, semantik-stilistik turlari, funktsional tiplari, matn komponentlarining birikish usullari va bog'lovchi vositalari ilmiy-nazariy planda o'rganilgach, matnning sohaviy xoslanishiga e'tibor qaratildi. Jumladan, Sh.Sultonova muqaddas matnlardagi zamon kategoriyasini ifodalovchi temporal so'zlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etdi. Tadqiqotchi o'z ishida diniy matnlarning uslubiy, funktsional, lingvopragmatik xususiyatlari o'rganish orqalidiniy matnlarni boshqa matn turlaridan farqini oolib berdi.

S.Qurbanova badiiy matnlarda shaxs xususiyatlarini ifodalash muammolarini o'rgandi. Bu tadqiqotda matnda shaxs xususiyatini ko'rsatuvchi lisoniy vositalar aniqlandi.

X.Do'smatov birinchilardan bo'lib askiya matnining lingvostistik xususiyatlarini oolib berar ekan, askiya matnlarini shakllantiruvchi fonetik, leksik, grammattik, sintaktik, stilistik vositalar aniqladi. Askija matnnini boshqa matn turlaridan farqli jihatlari oolib berdi.

Hojiyev Z.B. turli tizimli tillar materialli asosida badiiy matnning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganar ekan, olamning milliy madaniy manzarasi va uni badiiy matnda reprezentatsiyalovchi til birliklarini kognitiv-lingvomadaniy jihatdan tadqiq etdi.

Matnning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bosqichidan globallashuv jarayoni bilan bog'liq holda, matnlarning axborot-tehnologiyalar bilan bog'liq tomonlari, matnning pragmatik, paralingvopoetik tomonlariga e'tibor qaratila boshladi. Chunki axborot texnologiyalarning keskin rivojlanishi globallashuv jarayonining intesiv rivojlanishiga olib keldi. Bu esa ishlab chiqarishga, shuningdek, ilmiy datqiqot olamiga sun'iy intelektning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Bularning bari, o'z navbatida, matn nazariyasiga yangicha qarashlarning shakllanishiga olib keldi. Shuningdek matnga antropotsentrik jihatdan ham yondashila boshlandi. Bu matnnda inson omili, matn tuzish, uni qabul qilish masalalarini ham kun tartibiga olib chiqdi.

Matn borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarning rivojlanishi endi matn tushunchasini kengaytirdi. Avval, asosan, matn va uning ichki strukturasi, mazmuniy tuzilishi, uning sintaktik belgilariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, keyinchalik kreolizativ (aralash), vizual matnlar ham lingvistik jihatdan tadqiq qilina boshladi. Shuningdek, ekstralingvistik vositalarni ham matn bilan boog'liq tomonlari tilshunoslardan e'tiborini tortdi.

Matnni har tomonlama tadqiq etilishi, ilmiy tadqiqotlar natijasida olingen xulosalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Akademik G'.Abdurahmonov matn lingvistikasi tadqiqiga asos solgan bo'lsa, filologiya fanlari doktori, professor R.R.Sayfullayeva matnni ta'lim jarayonida o'qitish strategiyasini belgilab berdi. U "Matn muallifining yoshi va saviyasiga mos berilishi va talab etilishi lozim. Chunonchi, "Suv" mavzusi asosida birinchi sinf o'quvchisi ham, professor-ximik ham, xalq yozuvchisi ham matn tuza oladi. Lekin har bir matn har xil bo'ladi. Shuning uchun matn ustida ishlashda muallifning yoshi va saviysi nazarda tutilishi lozim. Bilimgohlarimizdagi sinflarda turli saviyadagi o'quvchilar mavjud bo'lganligiga qaramay, biz ulardan bir hil saiyadagi matnlar ustida ishni talab etmoqdamiz. Bu iqtidorlilar uchun ham, kam iqtidorlilar uchun ham zararlidir. Bunday yondashish iqtidorlilarni pastga

tortadi, kam iqtidorlilarni esa, zeriktirib, ta'limdan bezdiradi. Matn ustida ishda muallif saviyasini hisobga olish, undan qobilyatiga mos ravishdagi matnni talab qilish har bir shaxs imkoniyatining to'laroq ochilishiga va rivojlanishiga imkoniyat" yaratishini asosladi. Matnni tushunchasini ta'lim jarayoniga olib kirish ehtiyoji bir qator ilmiy-metodik, ilmiy-uslubiy qo'llanmalarning yaratilishiga olib keldi.

**Xulosa.** Demak, matn nazariyasining yuzaga kelish, shakllanish hamda rivojlanish bosqichi besh davrdan iborat bo'lib, uning ilk davrida matnga amaliy jihatdan yondashilgan bo'lsa, keyinchalik matn lingvistik tadqiqot obyekti sifatida belgilandi. Bu esa matnning struktur-semantik jihatlarini belgilash imkoniyatini yuzaga keltirdi. Shundan keyin, matnni ilmiy-nazariy planda tadqiq etila boshlandi va matn nazariyasini bo'yicha olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqot natijalari ta'lim jarayoniga tadbiq etildi. Bugungi kunga kelib matn haqidagi tushunchalar kengaydi. Globallashuv jarayonining ta'siri, axborot texnologiyalarning rivojlanishi, internetning tarmog'ini kengayishi va takomillashishi, sun'iy intelektning yaratilishi kabilar matn tadqiqi uchun yangi muammolarni yaratdi.

### Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов, Изд 2-ое, стереотип, – Москва: "Сов. Энциклопедия", 1969. – 470 с.
2. Русский язык. Энциклопедия. Гл. ред. Ф.П.Филин. – Москва: "Советская энциклопедия", 1979. – 348 с.
3. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati, – Toshkent: "O'qituvchi", 1885. – 88 b.
4. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi (pedagogika institutlarining o'zbek filologiyasi fakulteti studentlari uchun maxsus kurs) – Toshkent: 1989. 7-bet.
5. Николаева Т.М. текст//лингвистический энциклопедический словар/Гл. ред. В.Н.Ярсеева, – Москва: Сов. Энциклопедия, 1990. –507 с.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati, J. V. O'zR FA Til va adabiyot instituti. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. –196 b.
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, – A.Madvaliyev tahr.ost. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. M-harfi: – 582 b.
8. Xamidiy X., Abdullayeva Sh., Ibragimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati, – Toshkent: "O'qituvchi", 1970. – 222 b.
9. Xatamov N., Sarimsoqov B., Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati, –Toshkent, "O'qituvchi", 1979. – 308 b.
10. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati/F.F.D. D.Quronov umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 329 b.
11. Usmonov S. Umumiyl tilshunoslik. Pedagogika in-tillarining filologiya fak. uchun darslik. – Toshkent: 1972. – 10-bet.
12. Фигуровская Г.Д., Фигуровский В.И. Научно-педагогическая деятельность профессора И.А. Фигуровского (к юбилею ученого)// Педагогический журнал. 2019. Т. 9. № 5А. Ч. И. – 471 с.
13. Фигуровский И.А. От синтаксиса отделного предложения к синтаксису целого текста. "Русский язык в школе", 1948, №3; Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університету. Сер.: філологія. 2016. № 24 том 1, – 138 с.

14. Поспелов, Н.С. Проблема сложного синтаксического целого в современном русском языке. «Учение записки», вип. 1948. – 137 с.
15. Лосева Л.М. Как строится текст: Пособие для учителей/Под. Ред. Г.Я.Солганика. – Москва: Прsvешние, 1980. – 63 с.
16. Sayyora Tolkinovna Ismailova, & Ismail Tadjibayevich Xojaliyev. Medical text and its basic units. Central Asian Academic Journal of Sciysical Research. 2022. 2 (4), – p. 271-275.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 3 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).